

YOSHLAR TADBIRKORLIGI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Gulomqodirova Ma'mura Saydumarxon qizi

Doktorant, Qo'qon universiteti

Tel: +998940959933

E-mail: mamurakokanduniversity@gmail.com

Annotatsiya – Ushbu maqolada yoshlar tadbirkorligi faoliyatini boshqarishning ilg'or xorijiy tajribalari — xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya va Singapur modellari — tahlil qilingan hamda ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi imkoniyatlari asoslangan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bozor munosabatlarining murakkablashuvi, innovatsion faoliyatning kengayishi va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi yoshlar tadbirkorligini boshqarish tizimlariga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda, bu esa ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqot maqsadi — rivojlangan davlatlarning yoshlar tadbirkorligini boshqarish borasidagi tajribalarini qiyosiy tahlil qilish va ularning eng samarali elementlarini O'zbekiston milliy iqtisodiyoti xususiyatlariga moslashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi kontent-tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va ekspert baholash usullariga asoslangan. Tahlil natijalariga ko'ra, AQShning amaliy tadbirkorlik ta'limi va mentorlik institutlariga asoslangan modeli, Germaniyaning shaxsiy tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvi hamda Singapurning universitet–innovatsiya–investitsiya integratsiyasiga tayangan startap ekotizimi yoshlar tadbirkorligini boshqarishning eng samarali xorijiy amaliyotlari sifatida aniqlandi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Yoshlar biznesi" davlat dasturi va boshqa qo'llab-quvvatlash mexanizmlari rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, ularni xorijiy tajribalar bilan boyitish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Maqola yakunida uch davlat tajribasini uyg'unlashtirgan kompleks boshqaruv modeli taklif etilgan bo'lib, u yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, innovatsion korxonalar sonini ko'paytirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish uchun institutsional asos yaratadi.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, boshqaruv mexanizmlari, xorijiy tajriba, tadbirkorlik ta'limi, mentorlik tizimi, startap ekotizimi, innovatsion boshqaruv, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, institutsional hamkorlik, O'zbekiston iqtisodiyoti.

KIRISH

Yoshlar tadbirkorligi global va rivojlangan bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilib, uning samarali rivojlanishi ko'p jihatdan boshqaruv mexanizmlarining mukammalligi bilan belgilanadi. Bozor munosabatlarining murakkablashuvi, innovatsion faoliyatning kengayishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yoshlar tadbirkorligini boshqarish tizimlariga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Shu sababli mazkur yo'nalishda shakllangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ularning samarali jihatlarini amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv yondashuvlari iqtisodiy o'sishning muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur tajribalar yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va tadbirkorlik ekotizimini shakllantirishga qaratilgan kompleks mexanizmlar bilan tavsiflanadi.

Tadbirkorlik subyektlarini boshqarishning zamonaviy modellari yoshlarning biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlat, ta'lim muassasalari, moliyaviy institutlar va biznes infratuzilmasi o'rtasidagi ko'priklarni bajaradi. Innovatsion boshqaruv vositalaridan foydalanish, xususan startaplarni qo'llab-quvvatlash tizimlari, biznes inkubatorlari, akseleratsiya dasturlari, mentorlik institutlari va raqamli boshqaruv platformalari yosh tadbirkorlarning biznes faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zbekiston sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar izchil rivojlantirilayotgan bo'lsa-da, ilg'or boshqaruv tajribalarini o'rganish va ularning samarali elementlarini amaliyotga joriy etish zarurati saqlanib qolmoqda. Yoshlar tadbirkorligining iqtisodiy ahamiyati, avvalo, uning mehnat bozoridagi muvozanatni ta'minlash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Yoshlarning iqtisodiy faol aholiga kirib kelishi natijasida ularga mos ish o'rinlarini yaratish zarurati ortadi. An'anaviy yollanma mehnat shakllari bunday talabni to'liq qondira olmaydigan sharoitda tadbirkorlik faoliyati yoshlar uchun muqobil bandlik shaklini yaratadi. Yosh tadbirkor nafaqat o'zining bandligini ta'minlaydi, balki faoliyat ko'lamini kengaytirish orqali boshqa fuqarolar uchun ham yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash siyosati bandlik siyosati, hududiy rivojlanish siyosati va innovatsion rivojlanish siyosati bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning yana bir muhim jihati uning innovatsion iqtisodiyot shakllanishidagi rolidir. Yosh avlod yangi texnologiyalar, raqamli platformalar, elektron tijorat va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanishga nisbatan yuqori moslashuvchanlikka ega. Natijada yoshlar tomonidan tashkil etilayotgan yangi biznes loyihalarining ma'lum qismi an'anaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shakllaridan tashqari, axborot texnologiyalari, elektron tijorat, raqamli xizmatlar, kreativ industriyalar va boshqa innovatsion yo'nalishlarni qamrab olmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning yuqori natijadorligi birgina davlat tomonidan moliyaviy resurs ajratilishi bilan belgilanmaydi. Buning uchun davlat organlari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, bank-moliya institutlari, xususiylar biznes, investorlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma subyektlari o'rtasida samarali institutsional hamkorlik shakllantirilishi talab etiladi. Bunday yondashuv tadbirkorlik ekotizimini yaratishga xizmat qiladi. Ekotizim doirasida yosh tadbirkor biznes g'oyani shakllantirishdan boshlab uni moliyalashtirish, ishlab chiqarish yoki xizmat

ko'rsatishni yo'lga qo'yish, marketing, mijozlar bilan ishlash va faoliyatni kengaytirishgacha bo'lgan bosqichlarda zarur ko'makka ega bo'lishi mumkin.

Yoshlar tadbirkorligini boshqarish masalasida inson kapitalining sifati alohida ahamiyat kasb etadi. Biznesni boshlash uchun moliyaviy resurslarning mavjudligi hali tadbirkorlik loyihasining muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Tadbirkorning bozorni tahlil qilish, biznes-reja ishlab chiqish, xarajat va daromadlarni boshqarish, risklarni baholash, marketing strategiyasini shakllantirish, raqamli vositalardan foydalanish hamda jamoani boshqarish bo'yicha kompetensiyalari uning biznes faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli zamonaviy yoshlar tadbirkorligini boshqarish tizimida tadbirkorlik ta'limi va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqotning maqsadi — yoshlar tadbirkorligi faoliyatini boshqarishning ilg'or xorijiy (AQSh, Germaniya, Singapur) tajribalarini tizimli tahlil qilish hamda ularning O'zbekiston milliy iqtisodiyoti xususiyatlariga moslashtirilgan holda qo'llanilishi imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotning vazifalari: rivojlangan davlatlarning yoshlar tadbirkorligini boshqarish modellarini qiyosiy o'rganish; O'zbekistondagi mavjud holatni statistik ma'lumotlar asosida baholash; xorijiy tajribalarning milliy sharoitga moslashtirilgan elementlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqotning obyekti — yoshlar tadbirkorligini boshqarish tizimi, predmeti esa ushbu tizimni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar tadbirkorligini boshqarish muammosi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda faol o'rganilmoqda, biroq mavzuning ko'p qirraliligi tufayli uni yagona nazariy-metodologik asosga keltirish hali ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi. AQSh ilmiy adabiyotida yoshlar tadbirkorligini boshqarish tadbirkorlik ta'limi orqali shakllantiriladigan tizim sifatida talqin etiladi. Ashmore, DeWeese va Goodwin (2008) ta'kidlashicha, AQSh tajribasining asosiy xususiyati yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga biznes tashkil etish bosqichidan emas, balki tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish bosqichidan boshlab tayyorlashga qaratilganligi bilan tavsiflanadi [1]. Ushbu yondashuv yoshlarning iqtisodiy tashabbuskorligini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish hamda innovatsion fikrlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Mualliflarning fikricha, Amerika modelining muhim elementi — bu yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan institutlarning (biznes inkubatorlar, akseleratsiya markazlari, innovatsion laboratoriyalar) keng rivojlanganligi bo'lib, ular yosh tadbirkorlarga ofis maydonlari, texnik infratuzilma, konsalting xizmatlari va huquqiy maslahatlar ko'rinishida yordam ko'rsatadi [1].

Mentorlik instituti AQSh tajribasida yoshlar tadbirkorligini boshqarishning eng samarali vositalaridan biri sifatida ko'rsatiladi: tajribali biznes vakillari, investorlar va kompaniya rahbarlari yosh tadbirkorlarga murabbiy sifatida biriktirilib, ularning bilim va tajriba yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolarini kamaytirishga xizmat qiladi [1]. Shuningdek, universitetlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari,

jumladan universitetlar huzuridagi startap markazlari, talabalarning ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mahalliy va hududiy institutlarning (savdo-sanoat palatalari, notijorat tashkilotlar, biznes uyushmalari) faol ishtiroki ham Amerika modelining ajralmas qismi hisoblanadi.

Germaniya tajribasi. Germaniya tajribasida yoshlar tadbirkorligini boshqarish moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan ko'ra ko'proq shaxsiy tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biznes boshlash qaroriga ta'sir qiluvchi omillar orasida o'z tadbirkorlik qobiliyatlariga bo'lgan ishonch eng muhim omillardan biri hisoblanadi, tavakkalchilikka nisbatan ijobiy munosabat esa yoshlar orasida katta yoshdagi tadbirkorlarga qaraganda kuchliroq namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muhit va tadbirkorlik tarmog'ining rivojlanganligi — atrofida biznes bilan shug'ullanuvchi insonlarning mavjudligi — yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirishish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Germaniya modelida hududiy va institutsional muhitning ta'siri, shuningdek gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan maxsus dasturlar ham muhim o'rin tutadi. Bu tajribaning asosiy xulosasi shundaki, tadbirkorlik ta'limi nazariy bilimlardan ko'ra amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

1-jadval.

Rivojlangan davlatlarda yoshlar tadbirkorligini boshqarishning ilg'or yo'nalishlari

Boshqaruv yo'nalishi	Mazmuni	Kutilayotgan natija
Strategik boshqaruv	Uzoq muddatli maqsad va ustuvor yo'nalishlarni belgilash	Barqaror rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish
Innovatsion boshqaruv	Yangi texnologiya va raqamli yechimlarni joriy etish	Raqobatbardoshlikning kuchayishi
Raqamli boshqaruv	Sun'iy intellekt va elektron platformalar orqali avtomatlashtirish	Boshqaruv xarajatlarining kamayishi, qaror tezligining oshishi
Mentorlikka asoslangan boshqaruv	Tajribali tadbirkorlar tomonidan amaliy maslahat berish	Boshqaruv tajribasining shakllanishi
Startaplarni boshqarish tizimi	G'oyani aniqlash, rivojlantirish va tijoratlashtirish	Innovatsion korxonalar sonining ko'payishi
Ta'limga asoslangan boshqaruv	Amaliy trening va moliyaviy savodxonlikni oshirish	Malakali yosh tadbirkorlar qatlamining shakllanishi

Singapur tajribasi. Ta'lim va innovatsiyalar uyg'unligiga asoslangan Singapur modeli yoshlar tadbirkorligini boshqarishning eng samarali tizimlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Universitetlar tadbirkorlik ekotizimining markaziy subyekti sifatida faoliyat yuritib, ularning huzurida shakllangan startap markazlari va innovatsion laboratoriyalar yoshlarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy boshqaruv

kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Khurshid (2024) ma'lumotlariga ko'ra, Singapurda talabalar va bitiruvchilar uchun mo'ljallangan maxsus moliyalashtirish dasturlari — dastlabki investitsiyalar, grantlar, venchur kapitali va xorijiy biznes investitsiyalari — innovatsion loyihalarning dastlabki bosqichidayoq rivojlanishiga imkon yaratadi [2]. Sun'iy intellekt, DeepTech, ClimateTech va Enterprise SaaS kabi yuqori texnologiyali yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat berilishi Singapur yoshlar tadbirkorligining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, bu esa ilmiy salohiyatni tijoratlashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

2-jadval.

Germaniya tajribasi asosida yoshlar tadbirkorligini boshqarish yo'nalishlari

Boshqaruv yo'nalishi	Germaniya tajribasining mazmuni	Ta'siri
Tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish	Amaliy ta'lim va biznes ko'nikmalarini rivojlantirish	Biznes boshlashga bo'lgan ishonchni oshiradi
O'z-o'zini baholash mexanizmi	Shaxsiy salohiyatni to'g'ri baholash	Psixologik to'siqlarni kamaytiradi
Tavakkalchilikni boshqarish	Risklarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish	Innovatsion izlanishlarni kuchaytiradi
Biznes tarmoqlarini rivojlantirish	Professional hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash	Bozorga kirishni yengillashtiradi
Gender muvozanatini ta'minlash	Ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish dasturlari	Gender muvozanatini yaxshilaydi

Keltirilgan uch davlat tajribasini umumlashtirsak, ularning har biri o'ziga xos ustuvorlikka ega: AQSh — amaliy ta'lim va mentorlikka, Germaniya — shaxsiy kompetensiya va tadbirkorlik madaniyatiga, Singapur esa universitet-innovatsiya-investitsiya integratsiyasiga tayanadi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda ushbu uch modelni O'zbekistonning institutsional va iqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan holda kompleks tarzda qo'llash masalasi yetarlicha o'rganilmagan, bu esa ushbu tadqiqotning ilmiy bo'shlig'ini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot muallifning yoshlar tadbirkorligi faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan PhD dissertatsiya tadqiqotining bir qismi sifatida olib borildi. Tadqiqot dizayni sifatlashtirilgan (qualitative) tahlil bilan statistik ma'lumotlarni qiyoslashga asoslangan aralash yondashuvni tashkil etdi.

Ma'lumot to'plash uchun ikkita asosiy manba guruhidan foydalanildi: birinchisi — AQSh, Germaniya va Singapurning yoshlar tadbirkorligini boshqarish tajribasiga oid xorijiy ilmiy adabiyotlar (Ashmore va boshq., 2008; Khurshid, 2024 va boshqalar), ikkinchisi — O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) va rasmiy

davlat manbalarining yoshlar tadbirkorligi, kichik biznes subyektlari soni va bandlik ko'rsatkichlariga oid so'nggi (2025–2026-yillar) statistik ma'lumotlari.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: kontent-tahlil — xorijiy manbalardagi boshqaruv yondashuvlarini tizimlashtirish uchun; qiyosiy tahlil — uch davlat modelini o'zaro va O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirish uchun; tizimli-strukturaviy modellashtirish — boshqaruv subyektlari (davlat, ta'lim muassasalari, moliyaviy institutlar, yosh tadbirkorlar) o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish uchun; statistik tahlil — O'zbekistondagi mavjud holatni miqdoriy baholash uchun.

Tadqiqot bosqichlari quyidagicha tashkil etildi: birinchi bosqichda xorijiy tajribalar bo'yicha adabiyotlar tanlab olindi va tizimlashtirildi; ikkinchi bosqichda O'zbekistondagi yoshlar tadbirkorligining joriy holati statistik ma'lumotlar asosida baholandi; uchinchi bosqichda xorijiy tajribalarning milliy sharoitga moslashtirilishi mumkin bo'lgan elementlari aniqlanib, amaliy takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-iyul holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 463 mingga tashkil etib, shundan 393,4 mingga (85 foizi) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan [3]. Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 51,3 foizni tashkil etadi [4]. 2025-yil 1-mart holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 284 110 taga yetgan, so'nggi bir yilda esa YaTTni ro'yxatdan o'tkazgan ayollar soni qariyb 18 ming nafarga ko'paygan [5].

Yoshlar tadbirkorligini alohida qo'llab-quvvatlash maqsadida 2025–2027-yillarga mo'ljallangan "Yoshlar biznesi" davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, u doirasida 350 ming nafar yoshni qamrab olish, jumladan 18–30 yosh oralig'idagi shaxslar uchun kamida 100 ming nafar qo'shimcha ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Dastur doirasida "Aloqabank" AT yosh tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tayanch "yoshlar banki" etib belgilangan [6]. 2025-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan 22 trillion so'mlik imtiyozli resurslardan 2,5 trillion so'mi bevosita yoshlar tadbirkorligini, yana shunchasi esa ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan [7]. Shu bilan birga, yoshlar orasida ishsizlik darajasi 2025-yilda 11,4 foizni tashkil etib [8], bu ko'rsatkich yoshlar tadbirkorligini yanada faollashtirish zaruratini tasdiqlaydi.

Xorijiy tajribalar bilan solishtirganda, O'zbekistondagi mavjud qo'llab-quvvatlash tizimi asosan moliyaviy mexanizmlarga (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar) yo'naltirilgan bo'lib, bu AQSh va Germaniya tajribasida ikkinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblanadigan yondashuvdir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda amaliy tadbirkorlik ta'limi, institutsionallashtirilgan mentorlik tizimi va universitetlar bazasidagi startap ekotizimi hali yetarli darajada rivojlanmagan — bu esa aynan AQSh va Singapur tajribasining eng kuchli tomonlari hisoblanadi. Germaniya tajribasidagi "o'z-o'zini baholash" va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlari ham

milliy amaliyotda deyarli qo'llanilmayapti.

Shunday qilib, mavjud tahlil O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini boshqarishning moliyaviy-rag'batlantiruvchi modeldan kompleks — ta'lim, mentorlik, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani birlashtiruvchi — modelga o'tish zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari yoshlar tadbirkorligini boshqarishda faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi yetarli emasligini, balki ta'lim, mentorlik, innovatsion infratuzilma, institutsional hamkorlik va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish kabi omillarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Bu xulosa ilgari o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar bilan ham hamohang: xususan, Ashmore va boshqalar (2008) AQSh tajribasida amaliy ta'lim va mentorlikning ustuvorligini asoslagan bo'lsa [1], Khurshid (2024) Singapur misolida universitet-investitsiya integratsiyasining rolini ko'rsatgan [2]. Ushbu tadqiqot ularni O'zbekistonning joriy statistik holati bilan bog'lagan holda, milliy amaliyotda mavjud bo'shliqlarni aniqladi.

O'zbekiston sharoitida AQSh tajribasini qo'llash, birinchi navbatda, mamlakatimizdagi maktab, kollej va universitetlarda amaliy tadbirkorlik ta'limi ulushini oshirish, biznes-reja tuzish, marketing va moliyaviy boshqaruv bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish imkonini beradi. Germaniya tajribasidan foydalanish yosh tadbirkorlarning shaxsiy kompetensiyalarini — strategik rejalashtirish, tavakkalchilikni baholash va bozor imkoniyatlarini aniqlash ko'nikmalarini — rivojlantirish, shuningdek professional biznes hamjamiyatlari va yoshlar biznes klublari faoliyatini kengaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Singapur tajribasini joriy etish esa universitetlar huzuridagi startap markazlari, texnoparklar va akseleratorlar faoliyatini kuchaytirish, mentorlik tizimini institutsionallashtirish hamda investorlar bilan yosh tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishni talab etadi.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqotning bir qator cheklovlari mavjud. Birinchidan, tahlil asosan ikkilamchi (statistik va adabiyot) manbalarga tayangan bo'lib, yosh tadbirkorlarning bevosita so'rovnomalar natijalarini o'z ichiga olmaydi. Ikkinchidan, xorijiy tajribalarni O'zbekistonga moslashtirishda institutsional, madaniy va huquqiy farqlar hisobga olinishi zarur bo'lib, bu keyingi tadqiqotlar uchun alohida yo'nalish bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, olingan natijalar yoshlar tadbirkorligini boshqarishning kompleks modelini shakllantirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligi faoliyatini boshqarishning ilg'or xorijiy tajribalari — AQShning amaliy ta'lim va mentorlikka asoslangan modeli, Germaniyaning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvi hamda Singapurning universitet-innovatsiya-investitsiya integratsiyasiga tayangan ekotizimi — o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lib,

ularni uyg'unlashtirgan holda qo'llash O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini boshqarish samaradorligini oshirish uchun real imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, umumta'lim va oliy ta'lim tizimida amaliy tadbirkorlik ta'limi dasturlarini AQSh tajribasi asosida kengaytirish; ikkinchidan, tajribali tadbirkorlar va investorlar ishtirokidagi institutsionallashtirilgan mentorlik tizimini yo'lga qo'yish; uchinchidan, Germaniya tajribasiga tayangan holda yoshlarning shaxsiy tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi maxsus dasturlarni joriy etish; to'rtinchidan, universitetlar huzurida Singapur namunasidagi startap markazlari va innovatsion infratuzilmani kengaytirish; beshinchidan, mavjud "Yoshlar biznesi" davlat dasturini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan tashqari, ta'lim va mentorlik komponentlari bilan boyitish.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi yoshlar tadbirkorligining milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, innovatsion korxonalar sonini ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlar yosh tadbirkorlar o'rtasida o'tkaziladigan bevosita so'rovnomalar asosida taklif etilgan modelning amaliy samaradorligini empirik baholashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashmore M. C., DeWeese G., Goodwin J. Youth Entrepreneurship Education in America: A Policymaker's Action Guide. — Washington, DC: Consortium for Entrepreneurship Education, 2008. — P. 5–49.
2. Khurshid A. Singapore Student Startup Ecosystem Report 2024. — Singapore: Singapore Management University Institute of Innovation and Entrepreneurship & Protégé Ventures, 2024. — P. 8–15.
3. O'zbekistonda 85 foiz korxonalar kichik biznes subyekti // O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2025-yil 1-iyul holatiga. — Toshkent, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik // O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy hisoboti. — Toshkent: stat.uz, 2025.
5. Top-20: 35 yoshgacha bo'lgan tadbirkorlar reytingi // "Yuksalish" umummilliy harakati rasmiy sahifasi, 2025-yil 1-mart holatiga ma'lumotlar. — Toshkent, 2025.
6. Yoshlar tadbirkorligi rivojlantiriladi: "Yoshlar biznesi" 2025–2027-yillar dasturi // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali (gov.uz) rasmiy e'loni. — Toshkent, 2025.
7. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi: 2025-yilgi natijalar // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati ma'lumotlari. — Toshkent, 2025.
8. Uzbekistan Youth Unemployment Rate 2025 // Xalqaro statistik ma'lumotlar bazasi (Macrotrends). — 2025.
9. Acs Z. J., Audretsch D. B. Handbook of Entrepreneurship Research. — Springer, 2010. — 640 p.
10. Global Entrepreneurship Monitor 2024–2025 Report. — GEM Consortium, 2025.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. — Toshkent, 2022.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O‘zbekiston yoshlari — 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-66-son Farmoni. — Toshkent, 2026.